YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 5-son

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

ISSN: 2181-1938

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, X. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvaliyeva

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Vebsayt: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 21-oktabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 11,6.
Adadi: 100. Buyurtma: № 110.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

M. Vishovatiy – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Xashimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Origin Uzbekistan ijrochi direktori, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti Tadqiqot markazi rahbari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti Tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, dotsent

R. Altiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарифова, Х. Юлдашева,
Ф. Усмонова, К. Абдувалиева

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
21.10.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 11,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 110.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хашимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – исполнительный директор Origin Uzbekistan, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – руководитель Исследовательского центра факультета междисциплинарного изучения права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ш. Исмоилов – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – заведующая сектором экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Г. Юлдашева – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдошев – ведущий научный сотрудник Исследовательского центра факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Р. Алтиев – декан факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, и. о. профессора

М. Курбанов – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и. о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Kh. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvalieva

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 21.10.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 11,6.
Units: 100. Order: № 110.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khashimhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Executive Director of Origin Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Head of the Research Center of the Faculty of Interdisciplinary Studies of Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Head of the Department of Environmental Law of the Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Leading Research Fellow of the Research Center of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

R. Altiev – Dean of the Faculty of Criminal Justice of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Acting Professor

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufieva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **RAXMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlari: mazmuni, turlari va amalga oshirish mezonlari
22 **ABDURAYIMOV MUHAMMAD SUVANQUL O'G'LI**
Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish va advokatlik sirini saqlash kafolatlari
30 **ALLAMBAYEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimini takomillashtirish
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
Tadbirkorlik subyektlarining halolligi prezumpsiyasi iqtisodiy huquqlarni sudda himoya qilishning protsessual kafolati sifatida

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

52 **TURDIALIYEV MUHAMMAD ALI PO'LATJON O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venchur investitsiyalar hamda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar (private equity): huquqiy tartibot va shartnomaviy konstruksiyalardagi farqlar
74 **ABDUSAMATOV NURULLO QOBILJON O'G'LI**
Raqamli mulk fuqarolik huquqi obyekti sifatida

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

82 **SOBITOVA UMIDAXON MUROD QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaning oldini olishda prokuratura organlarining o'rni

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

92 **UTAYEV XUSNIDDIN XURRAMOVICH**
Raqamli muhitda mulkiy tajovuzlarni farqlashning jinoyat huquqiga oid mezonlari
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF O'G'LI**
Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etiladigan ayrim qilmishlarning obyektiv belgilari namoyon bo'lishi
110 **NEMATILLOYEV BAXROM VAXOBOVICH**
O'zbekiston jinoyat qonunchiligida "kiberjinoyat" tushunchasini takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

116 **XALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
Sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni va sohaviy qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etish masalalari
123 **NOSIROV AMIRXON BAHODIR O‘G‘LI**
Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida isbotlash predmetining kriminalistik jihatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

130 **YUNUSOV XAYDARALI MURATOVICH**
Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini ta’minlashning mintaqaviy mexanizmlari va tartib-taomillari
143 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish: xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati xalqaro-huquqiy tartibga solinishi: evolyutsiyasi, shartnomaviy-huquqiy bazasi va hamkorlikning institutsional mexanizmlari
166 **SAYFULLAYEVA MAHBUBA AZIM QIZI**
Xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modellari: qiyosiy-huquqiy tahlil
174 **XUDAYBERGANOVA NIGINA TO‘LQIN QIZI**
Maxsus missiyalar institutining tarixiy rivojlanishi

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

185 **XADJAYEVA SAODAT ANVAROVNA**
Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashda zamonaviy huquqiy va institutsional mexanizmlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 **РАХМАНОВ АКМАЛ ЭРГАШЕВИЧ**
Конституционно-правовые обязанности государства по обеспечению основных прав и свобод человека: содержание, виды и критерии реализации

22 **АБДУРАЙИМОВ МУХАММАД СУВАНКУЛ УГЛИ**
Цифровизация адвокатской деятельности и гарантии сохранения адвокатской тайны

30 **АЛЛАМБАЕВ ЖАВЛОНБЕК РУСТАМОВИЧ**
Совершенствование системы производства по делам об административных правонарушениях в таможенных органах

38 **АСЛОНОВА НАФИСА ОЛИМОВНА**
Презумпция добросовестности субъектов предпринимательства как процессуальная гарантия судебной защиты экономических прав

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

52 **ТУРДИАЛИЕВ МУХАММАД АЛИ ПУЛАТЖОН УГЛИ**
Перспективы совершенствования таможенного законодательства Республики Узбекистан в связи с внедрением технологий искусственного интеллекта

63 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА, КАЮМОВА АСАЛЯ СУЛТОНМУРОДОВНА**
Венчурные и прямые инвестиции (private equity): сравнительный анализ правового регулирования и договорных конструкций

74 **АБДУСАМАТОВ НУРУЛЛО КОБИЛЖОН УГЛИ**
Цифровое имущество как объект гражданских прав

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

82 **СОБИТОВА УМИДАХОН МУРОД КИЗИ**
Роль прокуратуры в предупреждении коррупции в сфере здравоохранения

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

92 **УТАЕВ ХУСНИДДИН ХУРРАМОВИЧ**
Уголовно-правовые критерии разграничения имущественных посягательств в цифровой среде

101 **АББОСОВ МИРСУЛТОН МИРШАРОФ УГЛИ**
Проявление объективных признаков отдельных деяний, совершаемых с участием искусственного интеллекта

110 **НЕМАТИЛЛОЕВ БАХРОМ ВАХОБОВИЧ**
Теоретико-правовые основы совершенствования понятия «киберпреступление» в уголовном законодательстве Узбекистана

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

116 **ХАЛИЛОВ АКРАМ УТАМУРОДОВИЧ**
Место института судебной экспертизы в системе права и вопросы устранения коллизий в отраслевом законодательстве
123 **НОСИРОВ АМИРХОН БАХОДИР УГЛИ**
Криминалистические аспекты предмета доказывания по делам о мошенничестве, совершённом с использованием информационных технологий

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

130 **ЮНУСОВ ХАЙДАРАЛИ МУРАТОВИЧ**
Региональные механизмы и процедуры обеспечения права на обращение в международные органы
143 **МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ**
Борьба с незаконным оборотом наркотических средств: тенденции развития международно-правового сотрудничества
154 **УМАРОВ РУСТАМ ЗУЛЬФУКАРОВИЧ**
Международно-правовое регулирование формата «Центральная Азия – Китай»: эволюция, договорно-правовая база и институциональные механизмы сотрудничества
166 **САЙФУЛЛАЕВА МАХБУБА АЗИМ КИЗИ**
Модели внедрения и применения английского права в международных финансовых центрах: сравнительно-правовой анализ
174 **ХУДАЙБЕРГАНОВА НИГИНА ТУЛКИН КИЗИ**
Историческое развитие института специальных миссий

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

185 **ХАДЖАЕВА САОДАТ АНВАРОВНА**
Современные правовые и институциональные механизмы подготовки научных кадров нового поколения

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

11 **RAKHMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Constitutional-legal obligations of the state in ensuring fundamental human rights and freedoms: content, types, and criteria for implementation
22 **ABDURAYIMOV MUKHAMMAD SUVANKUL UGLI**
Digitalization of advocacy activities and guarantees for maintaining advocacy confidentiality
30 **ALLAMBAEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Improving the system of administrative offense proceedings in customs authorities
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
The presumption of good faith of business entities as a procedural guarantee for the judicial protection of economic rights

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

52 **TURDIALIEV MUHAMMAD ALI PULATJON UGLI**
Prospects for improving the customs legislation of the Republic of Uzbekistan in connection with the introduction of artificial intelligence technologies
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venture capital investments vs private equity: differences in legal regulation and contractual structures
74 **ABDUSAMATOV NURULLO KOBILJON UGLI**
Digital property as an object of civil rights

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

82 **SOBITOVA UMIDAKHON MUROD KIZI**
The role of the prosecutor's office in preventing corruption in the healthcare sector

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

92 **UTAEV KHUSNIDDIN KHURRAMOVICH**
Criminal law criteria for differentiating property offences in the digital environment
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF UGLI**
Manifestation of the objective elements of certain acts committed with the participation of artificial intelligence
110 **NEMATILLOEV BAKHROM VAXOBOVICH**
Theoretical and legal foundations for refining the concept of "cybercrime" in the criminal legislation of Uzbekistan

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

116 **KHALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
The place of the institute of forensic examination in the legal system and issues of eliminating collisions in sectoral legislation
123 **NOSIROV AMIRKHON BAHODIR UGLI**
Forensic aspects of the subject of proof in fraud crimes committed using information technologies

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

130 **YUNUSOV KHAYDARALI MURATOVICH**
Regional mechanisms and procedures for ensuring the right to apply to international bodies
143 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Combating illicit drug trafficking: trends in the development of international legal cooperation
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
International legal regulation of the “Central Asia–China” format: evolution, treaty framework, and institutional mechanisms of cooperation
166 **SAYFULLAEVA MAHBUBA AZIM KIZI**
Models for the introduction and application of english law in international financial centres: a comparative legal analysis
174 **KHUDAYBERGANOVA NIGINA TULQIN KIZI**
Historical development of the institution of special missions

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

185 **KHADJAEVA SAODAT ANVAROVNA**
Modern legal and institutional mechanisms for training a new generation of researchers

Kelib tushgan / Получено / Received: 07.09.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 08.10.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 21.10.2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65013
UDC: 343.98:343.72:004(045)(575.1)

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILGAN FIRIBGARLIK JINOYATIDA ISBOTLASH PREDMETINING KRIMINALISTIK JIHATLARI

Nosirov Amirxon Bahodir o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-3764-5296
e-mail: a.nosirov.1111tsul@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda isbotlash predmetiga kiruvchi va aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar tizimi tahlil qilindi. Jinoyatchilik tendensiyasining keskin oshishi hamda tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan kriminalistik muammolar ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi. Ilmiy tadqiqotimizda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82- va 83-moddalarida belgilangan umumiy holatlarni xorijiy mutaxassislarning kriminalistik nazariy yondashuvlari, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar (Budapesht konvensiyasi, FATF tavsiyalari) asosida tizimlashtirib yoritdik va jinoyatchi shaxsini aniqlashda IP-manzil, MAC-manzil va qurilma identifikatorlarning ahamiyati, raqamli izlarning yaxlitligini ta’minlash zarurati asoslab berildi. Jinoyatning sodir etish usuli, qurol va vositalari, ushbu jinoyat sodir etilishiga olib kelgan holatlarni aniqlash bo‘yicha amaliy hamda nazariy tavsiyalar ko‘rib chiqildi. Muhokama qismida O‘zbekiston qonunchiligida ushbu turdagi jinoyat uchun alohida malakalashtiruvchi belgining yo‘qligi ko‘rib chiqildi. Maqolada mazkur holatlarni kompleks va o‘zaro bog‘liq holda aniqlash tergov samaradorligini oshirishning asosiy sharti ekanligi asoslantirildi hamda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surildi.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, firibgarlik, kriminalistika, isbotlash predmeti, raqamli izlar, tergov, kiberjinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligi*

КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕДМЕТА ДОКАЗЫВАНИЯ ПО ДЕЛАМ О МОШЕННИЧЕСТВЕ, СОВЕРШЁННОМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Носиров Амирхон Баходир угли,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В статье проанализирована система обстоятельств, входящих в предмет доказывания и подлежащих установлению при расследовании мошенничества, совершённого с использованием информационных технологий. Резкий рост числа таких преступлений и криминалистические проблемы, возникающие в следственной практике, обусловливают актуальность исследований в данной области. Предложена систематизация общих обстоятельств, предусмотренных статьями 82 и 83 Уголовно-процессуального кодекса*

Республики Узбекистан, с учётом теоретических подходов зарубежных специалистов в области криминалистики и положений международных документов – Будапештской конвенции и рекомендаций ФАТФ. Обоснованы значение IP-адресов, MAC-адресов и идентификаторов устройств для установления личности преступника, а также необходимость обеспечения целостности цифровых следов. Сформулированы теоретические и практические рекомендации по установлению способа совершения преступления, использованных орудий и средств, а также обстоятельств, способствовавших его совершению. В дискуссионной части рассмотрен вопрос об отсутствии в законодательстве Узбекистана специального квалифицирующего признака для данного вида преступлений. Обосновано, что комплексное установление указанных обстоятельств с учётом их взаимосвязи является основным условием повышения эффективности расследования. Сформулированы предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: *информационные технологии, мошенничество, криминалистика, предмет доказывания, цифровые следы, расследование, киберпреступление, уголовно-процессуальное законодательство*

FORENSIC ASPECTS OF THE SUBJECT OF PROOF IN FRAUD CRIMES COMMITTED USING INFORMATION TECHNOLOGIES

Nosirov Amirkhon Bahodir ugli,
Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyses the system of circumstances that constitute the subject of proof and must be established when investigating fraud committed through the use of information technologies. The sharp increase in this type of crime and the forensic challenges arising in investigative practice clearly demonstrate the relevance of research in this area. The article systematises the general circumstances set out in Articles 82–83 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan on the basis of forensic theoretical approaches developed by foreign scholars, as well as relevant international legal instruments, including the Budapest Convention and the FATF Recommendations. The study substantiates the significance of IP addresses, MAC addresses, and device identifiers in establishing the identity of an offender, as well as the need to ensure the integrity of digital traces. Practical and theoretical recommendations are proposed for determining the method of commission of the offence, the instruments and means used, and the circumstances that contributed to its commission. The discussion also considers the absence in Uzbek legislation of a separate qualifying element specifically applicable to this type of offence. The article concludes that the comprehensive and interconnected establishment of these circumstances is a key condition for improving the effectiveness of investigations and puts forward proposals for further improvement of the legislation.*

Keywords: *information technologies, fraud, criminalistics, subject of proof, digital traces, investigation, cybercrime, criminal procedure legislation*

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlari statistikasi global darajada keskin ortib bormoqda. Kibermakonning o‘ziga xos tabiati, jinoiy harakatlarning transchegaraviy va yuqori texnologik murakkabligi an’anaviy tergov usullarining samaradorligini sezilarli darajada cheklab qo‘ymoqda. Shu bois ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar tizimini har taraflama chuqur o‘rganish tergov amaliyoti hamda uslubiyotini samarali rivojlantirishning bosh omili hisoblanadi.

Kriminalistika fani doirasida isbotlash predmeti uslubiyotini taniqli olim R.S. Belkin (1997, pp. 344–352) konseptual jihatdan chuqur tadqiq etgan va uning fikriga ko‘ra,

axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida tergov metodologiyasini ishlab chiqish va quyidagi ikki qatlam uyg‘unlashtirilishi zarur degan g‘oyani ilgari surgan: birinchisi – jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlangan va barcha jinoiy qilmishlar uchun unifikatsiyalashgan umumiy holatlar: ikkinchisi – muayyan jinoyat turining kriminalistik tavsifidan kelib chiquvchi o‘ziga xos maxsus holatlar majmuyi.

V. Obrazsov tomonidan jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi doirasida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarning to‘rt bosqichli tasnifi ilgari surilgan (Obraztsov, 1995, pp. 407–418). Ushbu tizimga muvofiq, isbotlash obyektlari sifatida jinoyat hodisasi, aybdor shaxs doirasi, qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatlar hamda huquqbuzarlikning sodir etilishiga imkon yaratgan shart-sharoitlarga taalluqli holatlar ajratib ko‘rsatilgan.

Fikrimizcha, ushbu ilmiy adabiyotlardagi mazkur an’anaviy qarashlar asosan klassik jinoyat turlariga mo‘ljallangan. A. Belkin (1997) va V. Obrazsovning ilmiy-nazariy qarashlari zamonaviy raqamli davrda kiberjinoyatlarni tergov qilish uslubiyatini rivojlantirish uchun metodologik poydevor xizmatini o‘taydi (Obraztsov, 1995). Mazkur klassik nazariyalarni raqamli izlar, virtual identifikatsiya vositalari hamda transchegaraviy kiberdalillar bilan boyitish va zamonaviylashtirish kiberfiribgarlik qilmishlarini fosh etish hamda isbotlash jarayonining protsessual qonuniyligi va ishonchliligini ta’minlashning asosiy shartidir.

Bundan tashqari, so‘nggi yillardagi xorijiy tadqiqotlar ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, A. Xan va boshqalar zamonaviy raqamli kriminalistika sohasidagi metodologik yondashuvlarni, dalillar zanjirini saqlash muammolari hamda mavjud tergov vositalaridagi cheklovlarni tahlil qilgan (Khan et al., 2022). Markaziy Osiyo mintaqasi kontekstida esa K. Lakbayev va hammualliflar Qozog‘iston misolida yuqori texnologiyalar sohasidagi jinoyat tushunchasi, ularni tasniflash muammolari va ularga qarshi kurashish usullarini o‘rgangan (Lakbaev et al., 2020). Mintaqaviy huquqiy tizimlarning o‘xshashligi tufayli bu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun ham metodologik jihatdan qiziqish uyg‘otadi.

Raqamli jinoyatlarga xos transchegaraviy xususiyat tergov va amaliyot materiallarida isbotlanishi zarur bo‘lgan holatlar tizimini belgilashda xalqaro-huquqiy omillarga tayanishni talab etadi. Yevropa Kengashining 2001-yilgi Budapesht konvensiyasining protsessual tartibga bag‘ishlangan bo‘limida kompyuter ma’lumotlarini saqlash, raqamli obyektlarni qidirish hamda elektron izlar va dalillarni tezkor qo‘lga kiritish va mustahkamlash taktikalari ko‘rsatib o‘tilgan jiddiy qilmishlar bo‘yicha raqamli dalillar bilan xalqaro almashish tartibini joriy etadi. Bu esa transchegaraviy kiberjinoyat izlarini aniqlashda davlatlararo kiberkriminalistik hamkorlik imkoniyatlarini oshiradi.

Asosiy qism

Normativ-huquqiy tahlil metodi orqali O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar (Budapesht konvensiyasi, FATF tavsiyalari)ning tegishli normalari tahlil qilindi; qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro standartlar bilan qiyoslandi; doktrinal tahlil metodi R. Belkin, V. Obrazsov, N. Shuruxnov, Y. Gavrilin va E. Keysining kriminalistik nazariy qarashlari tizimli tahlil qilindi (Belkin, 1997; Obraztsov, 1995; Shurukhnov, 2004; Gavrilin, 2003; Casey, 2011). Ushbu metodlar orqali aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar besh guruhga ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos kriminalistik mazmuni ko‘rsatib berildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-83-moddalarida belgilangan isbotlash predmeti elementlari, tadqiqot predmeti sifatida esa ularning axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatlariga xos kriminalistik xususiyatlari tanlab olindi.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasidagi yettita holatning besh guruhga bo‘linishi raqamli makonda sodir etiluvchi firibgarlik xususiyatlarini inobatga olgan holda isbotlash mexanizmining o‘ziga xosligini va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Birinchi guruh – jinoyat hodisasiga oid holatlar. Unda birinchi navbatda qilmishning sodir etilish vaqti, makoni va usulini aniqlash vazifasi belgilanadi. Klassik jinoyat turlaridan farqli o‘laroq, ushbu huquqbuzarlik muayyan geografik hududga bog‘liq bo‘lmagan holda virtual makonda sodir etiladi hamda bir vaqtning o‘zida turli davlatlar yurisdiksiyasini qamrab olishi mumkin. Shu sababli jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash maxsus texnik-analitik tahlil asosida tegishli server, tarmoq va raqamli platformalarni identifikatsiya qilishni taqozo etadi. Kriminalistik uslubiyat nuqtayi nazaridan Y. Gavrilin (2003) jinoyatni sodir etish usullari mexanizmini quyidagicha tasniflaydi: fishing qalbaki veb-saytlar orqali raqamli izlar va shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, vishing ovozli telefon muloqoti orqali aldash, smishing matnli SMS xabarlar orqali chalg‘itish, spoofing tarmoq va shaxs identifikatorlarini soxtalashtirish hamda sotsial injeneriya jabrlanuvchiga psixologik manipulyatsiya vositasida ta’sir ko‘rsatish.

Budapesht konvensiyasining 8-moddasida kompyuter vositasidagi firibgarlikni tashkil etuvchi elementlar belgilangan bo‘lib, ushbu xalqaro standart jinoyat hodisasiga oid aniqlanishi lozim holatlarning mazmunini shakllantirish uchun metodologik mezon sifatida xizmat qiladi. E. Keysining tahliliy xulosalariga ko‘ra, kiberjinoyat sodir etilish usuli va uning o‘ziga xos mexanizmini aniqlash axborot infratuzilmasi elementlari, tranzaksiya ma’lumotlari, server log-fayllari hamda elektron pochta sarlavhalarini o‘zaro bog‘liqlikda chuqur tahlil qilishni taqozo etadi (Casey, 2011, pp. 163–175).

Ikkinchi guruh – jinoyatchi shaxsiga oid holatlar. Bu guruh klassik tergov ishlaridan eng ko‘p farq qiladigan guruh hisoblanadi. N. Shuruxnovning huquqiy va metodologik yondashuviga ko‘ra, tergov organlari xodimlarining maxsus texnik bilimlari yetmasligi kiberjinoyatchilarni identifikatsiya qilish tartibini murakkablashtiruvchi omil hisoblanadi (Shurukhnov, 2004, pp. 510–518). Zero, huquqbuzar shaxs ko‘p bosqichli anonimlikni ta’minlovchi dasturiy-texnik vositalar orqali o‘z shaxsiy ma’lumotlarini yashirgan holda harakat sodir etadi. Jinoyatchi shaxsini aniqlash uchun quyidagi elektron identifikatorlar tahlil qilinadi: IP-manzillar, MAC-manzillar, SIM-karta raqamlari, foydalanuvchi hisobi, raqamli imzolar va qurilma identifikatorlari (IMEI). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Y. Gavrilin (2003, pp. 52–62)ning fikriga ko‘ra, mazkur identifikatorlarning har biri alohida-alohida jinoyat subyektini to‘liq fosh etish xarakteriga ega emas. Shunday bo‘lsa-da, ushbu identifikatsion ma’lumotlarning sintez qilingan majmuyi har tomonlama ishonchli va yetarli dalillar tizimini namoyon etadi. Bundan tashqari, jinoyatchi yoki jinoyatchilar guruhining texnik bilim darajasi, ular tomonidan foydalanilgan anonimlashtiruvchi vositalar (VPN, Tor tarmog‘i, proksi-serverlar), guruhda harakat qilganlik va rollarning taqsimlanishi hamda jinoyatning qaysi davlatdan turib sodir etilganligi aniqlanishi lozim. E. Keysi ta’kidlaganidek, raqamli izlar server loglarida ko‘pincha qaytarib tiklab bo‘lmaydigan holda saqlanib qoladi – bu jinoyatchi o‘z izini o‘chirishga uringan taqdirda ham dalil topish imkonini beradi (Casey, 2011, pp. 221–238).

Uchinchi guruh jabrlanuvchiga oid holatlar. Bu guruh doirasida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zarar miqdori aniqlanadi. Zarar miqdorini aniqlash elektron to‘lovlar tizimidan o‘tkazilgan operatsiyalar, banklardagi tranzaksiya yozuvlari, raqamli hamyon tarixi va kripto-valyuta harakatlari tahlili orqali amalga oshiriladi. FATFning 15-tavsiyasida yangi texnologiyalar orqali amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni kuzatish va zarar miqdorini aniqlash bo‘yicha stan-

dartlar belgilangan (Financial Action Task Force, 2020). Shuningdek, jabrlanuvchining axborot texnologiyalari sohasidagi savodxonlik darajasi ham aniqlanadi. Bu holat olim Y. Gavrilinning (2003, pp. 63–70) huquqiy yondashuviga ko‘ra, huquqbuzar qo‘llagan aldash va chalg‘itish usullarining keltirib chiqargan oqibatlari kriminalistik jihatdan baholanadi hamda qilmishni muayyan jinoyat tarkibi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlikning malakalashtiruvchi belgilari sifatida jabrlanuvchining zaif holatidan foydalanish va katta miqdorda zarar yetkazish alohida ko‘rsatilgan. B. Nikkel (2020) fintex-kriminalistikani raqamli kriminalistikaning alohida yo‘nalishi sifatida asoslab, jinoyatchilarning to‘lov tizimlari va boshqa moliyaviy texnologiyalardan firibgarlik, tovlamachilik va daromadlarni legallashtirish uchun foydalanish holatlari ortib borayotganini, bu esa maxsus uslubiy yondashuvni talab qilishini ta’kidlaydi.

To‘rtinchi guruh jinoyat izlariga oid holatlar. Raqamli izlar ko‘zga ko‘rinmaydigan, ammo texnik vositalar yordamida aniqlab, o‘qib va qayta tiklab bo‘ladigan maxsus turdagi izlardir. E. Keysi raqamli izlarning quyidagi asosiy turlarini ajratadi: server log-fayllaridagi ulanish ma’lumotlari, brauzer tarixi va kesh-xotiradagi ma’lumotlar, elektron pochta sarlavhalari, moliyaviy tranzaksiya tarixi, mobil qurilmalar joylashuviga oid ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat izlari va zararli dasturlar qoldirgan raqamli izlar (Casey, 2011, pp. 238–255). R. Belkin (1997, pp. 355–362) esa jinoyat izlari kategoriyasini alohida muhim kategoriya sifatida ajratib, ularning isbotlash predmetidagi o‘rni va tergovda to‘planishi, mustahkamlanishi hamda tekshirilishiga oid metodologik asoslarni batafsil ishlab chiqqan. Budapesht konvensiyasining 16–17-moddalarida raqamli ma’lumotlarni tezkor muhofaza qilish va saqlash majburiyati belgilangan bo‘lib, ushbu xalqaro standart raqamli dalillarning yaxlitligi (integrity) va autentikligi (authenticity) masalasini birinchi o‘ringa chiqaradi. Kripto-valyuta orqali sodir etiladigan firibgarlik holatlarida M. Mirza va boshqalar tadqiqoti alohida ahamiyatga ega: ular mobil qurilmalardagi “Elektron hamyon (virtual hamyon)” ilovalaridan tranzaksiya tarixi, hamyon manzillari va boshqa raqamli artefaktlarni tiklash mumkinligini isbotlagan, bu esa kripto-aktivlar bilan bog‘liq firibgarlik ishlarida muhim dalil manbayi bo‘lib xizmat qiladi (Mirza et al., 2022).

Beshinchi guruh jinoyat sodir etilishiga yordam bergan sabab va sharoitlarga oid holatlar (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasi 7-bandi). Bu guruhda quyidagilar aniqlanadi: axborot tizimlari xavfsizligidagi texnik kamchiliklar, ya’ni zaif parollar, yangilanmagan dasturiy ta’minot, shifrlash yetishmasligi; aholining axborot savodxonligi past bo‘lganligi sababli aldanishga moyilligi; tashkilotlarda axborot xavfsizligi tizimining yetarli emasligi; moliyaviy tizimlar va bank sektorida monitoring mexanizmlarining samarasizligi hamda qonunchilikdagi bo‘shliqlar. Y. Gavrilin (2003, pp. 71–78) ushbu omillarni texnik, tashkiliy va insoniy omillarga ajratib, har biri uchun alohida profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Yevropolning IOCTA 2021 (Internet Organised Crime Threat Assessment) hisobotida ham onlayn firibgarlik sodir etilishiga olib keluvchi omillar sifatida profilaktika choralarining yetishmasligi va jamiyatda raqamli savodxonlikning pastligi alohida qayd etilgan (Europol, 2021, pp. 18–26).

Aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar tizimini nazariy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu holatlar an’anaviy firibgarlik uchun belgilangan holatlardan nafaqat mazmun, balki ularni aniqlash usullari jihatidan ham tubdan farq qiladi. R. Belkin (1997, pp. 344–350) nazariyasiga muvofiq, jinoyat-protsessual qatlamdagi

umumiy holatlar (JPK 82-moddasi) va kriminalistik qatlamdagi maxsus holatlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgandagina isbotlash predmeti to‘liq hisoblanadi. V. Obrazsovning metodologik tasnifi esa ushbu holatlarni amaliy tergov jarayonida guruhlab ishlash imkonini beradi: har bir guruh bo‘yicha aniqlanishi zarur bo‘lgan holatlar ro‘yxatini oldindan belgilash, ularni aniqlash uchun zarur tergov harakatlari ketma-ketligini rejalashtirish va natijalarni tizimli ravishda umumlashtirish tergov samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (Obraztsov, 1995, pp. 418–426). V. Obrazsovning guruhlash metodiga tayangan holda, zamonaviy kiberfiribgarlik turlari (masalan, phishing – soxta havola orqali aldash, social engineering – ijtimoiy muhandislik, kripto-skam) bo‘yicha tergovchilar uchun namonaviy (standart) tergov harakatlari matrisalarini ishlab chiqish zarur. Bu tergovchiga dastlabki bosqichdayoq asosiy va ikkinchi darajali holatlarni to‘g‘ri ajratib olish va vaqtni boy bermay raqamli dalillarni muhrlash (hash-kodlar orqali fiksatsiya qilish) imkonini beradi.

Fikrimizcha, R. Belkin va V. Obrazsov modellari integratsiyasi axborot texnologiyalari sohasidagi firibgarlikni tergov qilishda shunchaki protsessual talablarni bajarish bilan cheklanib qolmay, raqamli dalillarni to‘plash, baholash va isbotlash jarayonini yaxlit amaliy tizimga aylantirishning eng maqbul metodologik asosidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida isbotlash predmetining elementlari batafsil belgilangan bo‘lib, ularning ushbu turdagi ishlarda qo‘llanilishi o‘ziga xos kriminalistik mazmun kasb etadi: jinoyat hodisasi virtual muhitda aniqlanadi; aybdorlik raqamli identifikatsiya orqali isbotlanadi; yetkazilgan zarar moliyaviy tranzaksiyalar tahlili orqali aniqlanadi. Y. Gavrilin (2003, pp. 78–88) ta’kidlaganidek, ushbu holatlarning barchasi to‘liq va bir-birini tasdiqlagan holda isbotlangandagina jinoyat-huquqiy ta’rif to‘g‘ri amalga oshiriladi. Xalqaro huquqiy asoslar nuqtayi nazaridan, Budapesht konvensiyasining 2–11-moddalarida kiberjinoyatlarni tashkil etuvchi elementlar belgilangan bo‘lib, ular ushbu turdagi jinoyat uchun aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarning xalqaro mezonini tashkil etadi. N. Shuruxnov ta’kidlaganidek, ushbu turdagi jinoyatni tergov qilishda maxsus texnik bilimlardan foydalanish zarurati isbotlash predmetini to‘liq qamrab olishning zaruriy shartidir: texnik ekspertizasiz raqamli izlarni aniqlash, moliyaviy tranzaksiyalar zanjirini kuzatish va jinoyatchi shaxsini raqamli yo‘l bilan identifikatsiya qilish deyarli mumkin emas (Shurukhnov, 2004, pp. 518–526).

Shu bilan birga, O‘zbekiston qonunchiligida ushbu turdagi jinoyat uchun alohida kriminallashtirishning yo‘qligi aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar tizimini shakllantirishda ma’lum muammolarni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik uchun umumiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, uning axborot texnologiyalari orqali sodir etilishi alohida malakalashtiruvchi belgi sifatida ko‘rsatilmagan. Bu holat tergovchi va sudyalar uchun ushbu turdagi jinoyat bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan maxsus holatlar ro‘yxatini shakllantirishni qiyinlashtiradi. O‘zbekiston Respublikasining Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda qonunchilikni takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi ham mazkur yo‘nalishda alohida norma yoki malakalashtiruvchi belgi kiritilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar jinoyat hodisasiga, jinoyatchi shaxsiga, jabrlanuvchiga, jinoyat izlariga va jinoyat sodir etilishiga yordam bergan sabab hamda sharoitlarga oid holatlar har biri an’anaviy firibgarlikdan sifat jihatidan farq qiluvchi, o‘ziga xos kriminalistik mazmun kasb etuvchi holatlar hisoblanadi. Ushbu holatlarni kompleks va o‘zaro bog‘liq holda aniqlash ter-

govning samaradorligini ta’minlaydi, dalillar bazasini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi aniq takliflar ilgari suriladi:

– birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasiga axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlikni alohida malakalashtiruvchi belgi sifatida kiritish maqsadga muvofiq;

– ikkinchidan, huquqni muhofaza qilish organlari uchun ushbu beshta guruh bo‘yicha holatlarni aniqlashning yagona uslubiy tavsiyalarini (metodik qo‘llanma darajasida) ishlab chiqish;

– uchinchidan, raqamli dalillar yaxlitligi va autentikligini (haqiqiyligini yiki shaxsni tasdiqlash) ta’minlash bo‘yicha protsessual-texnik qoidalarni (masalan, Budapesht konvensiyasining 16-17-moddalari misolida) milliy qonunchilikda mustahkamlash;

– to‘rtinchidan, tergovchilar va sud ekspertlari uchun raqamli kriminalistika sohasida ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ishning nazariy ahamiyati isbotlash predmeti nazariyasini raqamli muhit sharoitlariga moslashtirilgan holda rivojlantirishdan, amaliy ahamiyati esa tergov va sud amaliyoti uchun aniq yo‘nalishlar berishdan iborat.

REFERENCES

Belkin, R. S. (1997). *Kurs kriminalistiki* [Course of forensics]. Yurist.

Casey, E. (2011). *Digital evidence and computer crime: Forensic science, computers and the internet* (3rd ed.). Academic Press.

Council of Europe. (2001). *Convention on cybercrime (Budapest Convention)* (ETS No. 185). https://rm.coe.int/1680081561

Europol. (2021). *Internet organised crime threat assessment (IOCTA) 2021*. Europol Publications Office.

Financial Action Task Force. (2020). *International standards on combating money laundering: The FATF recommendations*. FATF/OECD.

Gavrilin, Yu. V. (2003). *Rassledovanie prestupleniy v sfere kompyuternoy informatsii* [Investigation of crimes in the field of computer information]. The Book World.

Khan, A. A., Shaikh, A. A., Laghari, A. A., Dootio, M. A., Rind, M. M., & Awan, S. A. (2022). Digital forensics and cyber forensics investigation: Security challenges, limitations, open issues, and future direction. *International Journal of Electronic Security and Digital Forensics*, *14*(2), 124–150. https://doi.org/10.1504/IJESDF.2022.121174

Lakbaev, K. S., Rysmagambetova, G. M., Umetov, A. U., & Sysoev, A. K. (2020). The crimes in the field of high technology: Concept, problems and methods of counteraction in Kazakhstan. *International Journal of Electronic Security and Digital Forensics*, *12*(4), 412–423.

Mirza, M. M., Ozer, A., & Karabiyik, U. (2022). Mobile cyber forensic investigations of Web3 wallets on Android and iOS. *Applied Sciences*, *12*(21). https://doi.org/10.3390/app122111180

Nikkel, B. (2020). Fintech forensics: Criminal investigation and digital evidence in financial technologies. *Forensic Science International: Digital Investigation*, *33*, 200908. https://doi.org/10.1016/j.fsidi.2020.200908

Obraztsov, V. A. (Ed.). (1995). *Kriminalistika: uchebnik dlya vuzov* [Forensics: Textbook for universities]. Yurist.

President of the Republic of Uzbekistan. (2020, October 5). *On approval of the Strategy “Digital Uzbekistan-2030” and measures for its effective implementation* (Decree No. DP-6079). Lex.uz. https://lex.uz/docs/-5030957

Republic of Uzbekistan. (1994a). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111453

Republic of Uzbekistan. (1994b). *Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111460

Shurukhnov, N. G. (2004). *Kriminalistika* [Forensics]. Yurist.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence